Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 405-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284
KAMOLOVA NAZOKAT MALIK QIZI
To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishda suv izi ko‘rsatkichlariga asoslangan yashil marketing vositalaridan foydalanish istiqbollari.....301
USMANOVA NASIBA YUNUSOVNA
O‘zbekiston korxonalarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini strategik boshqarish: muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari.....312
KUVNAKOV XAYDAR KASIMOVICH
O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari maydonlaridan samarali foydalanishda qorako‘lchilikning ahamiyati.....324
BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Ekoturizm va uning O‘zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o‘rni.....330
GAO BING, ZHAO YI
Barriers and practice configurations of corporate green management: evidence from semi-structured interviews with operational managers.....338
YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH
To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish.....350
TAN HONGLIN, LI BING
Efficiency–resilience coupling and spatial spillovers in cross-border arid agglomerations: an analytical framework and testable propositions.....362
SAYFUTDINOV SHUXRATJON SULTONOVICH
Turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....375
BEGLAYEV UÇQUN XURRAMOVIÇ
Hududlar baliqçilik sohasiga xizmat körsatuvçi infratuzilma subyektlarining boşqaruv tizimi va ularning samaradorlikga ta’siri.....382
NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi.....395

TILOVMURODOV DOSTONBEK FURQAT O‘G‘LI
Aktiv turizm xizmatlarini shakllantirish va tijoratlashtirish yo‘llari.....405
TOSHTEMIR BOYMURODOVICH BERDIYEV
Mamlakatimiz bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....412
BOBOJANOV BAHROMBEK RUZIMOVICH, BABADJANOVA MALIKA RUZIMOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va agrobiznes samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.....418
ABDULHAYEV SHOHZOD HUSNIDDIN O‘G‘LI
Xodimlar malakasini oshirishga kiritilgan investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini baholash (Qashqadaryo viloyati xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida).....425
SATTIKULOVA GAVHARNISO AXMADXANOVNA
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xitoy tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....433
MURODOVA NARGIZA O‘TKUROVNA
Turizmda dinamik narx belgilash va raqamli marketing samaradorligi.....441
TEMIROVA FERUZA SAGDULLAYEVNA
Raqamli iqtisodiyotda brendga sodiqlik: xulq-atvor va multikanal yondashuvlar.....450
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, TURSUNOV QOSIMBEK NODIROVICH, TOG‘AYEV ABROR AKBAR O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik.....458
HAYITOV JAMSHID XOLBOYEVICH, BOZOROV JOBIR SIROJIDDIN O‘G‘LI
Xizmatlar sohasida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlar.....468
BOLTAYEV NURALI SHIRAMATOVICH
Agrar oliy ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlashning boshqarish jarayonini baholash.....476

AKTIV TURIZM XIZMATLARINI SHAKLLANTIRISH VA TIJORATLASHTIRISH YO‘LLARI

TILOVMURODOV DOSTONBEK FURQAT O‘G‘LI
Alfraganus University, «Xalqaro turizm menejmenti» kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: d.tilovmurodov@afu.uz
ORCID: 0000-0001-5645-822X

Annotatsiya. Ushbu maqolada faol turizm xizmatlarini rivojlantirish va tijoratlashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Unda xizmat ko‘rsatish tuzilmasi aniqlanadi, 2024–2025 yillarga mo‘ljallangan global bozor ko‘rsatkichlari va O‘zbekistondagi sohaning holati tahlil qilinadi. Xizmat ko‘rsatish modeli, oltita tijoratlashtirish modeli va xizmatni bozorga chiqarish bo‘yicha yo‘l xaritasi taklif qilingan.
Kalit so‘zlar: aktiv turizm, faol dam olish, turistik mahsulot, xizmatlarni shakllantirish, tijoratlashtirish, paket tur, narx strategiyasi, sotish kanallari, gid-instruktor, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье изучены пути формирования и коммерциализации услуг активного туризма. Определена структура услуги, проанализированы показатели мирового рынка за 2024–2025 годы и состояние отрасли в Узбекистане. Предложены модель услуги, шесть моделей коммерциализации и дорожная карта вывода услуги на рынок.
Ключевые слова: активный туризм, активный отдых, туристский продукт, формирование услуг, коммерциализация, пакетный тур, ценовая стратегия, каналы продаж, гид-инструктор, Узбекистан.

Abstract. The article explores ways of forming and commercializing active tourism services. The structure of the service is defined, and the global market indicators for 2024–2025 and the state of the sector in Uzbekistan are analyzed. A four-layer service model, six commercialization models and a four-stage market entry roadmap are proposed.
Keywords: active tourism, active recreation, tourism product, service development, commercialization, package tour, pricing strategy, sales channels, guide-instructor, Uzbekistan.

KIRISH

Aktiv turizm – turistning jismoniy faollik orqali tabiiy va madaniy muhit bilan bevosita aloqaga kirishiga asoslangan turizm turi bo‘lib, u piyoda sayohat, velosiped, tog‘-chang‘i, rafting, alpinizm kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi [1]. So‘nggi yillarda jahonda turistlar passiv dam olishdan tajriba va hissiyotga asoslangan sayohatlarga o‘tmoqda. Natijada aktiv turizm tor ixtisoslashgan yo‘nalishdan ommaviy va yuqori daromadli segmentga aylandi [2].

Sarguzasht turizmi assotsiatsiyasi (ATTA) ma’lumotlariga ko‘ra, sarguzashtga ochiq sayohatchilar bir kechaga o‘rtacha 265 AQSh dollari sarflaydi, ularning safari taxminan 11 kun davom etadi va bitta safar uchun xarajat 3 000 dollar atrofida bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich ommaviy turizm turlariga nisbatan yuqori bo‘lib, aktiv turizmni mamlakat uchun valyuta tushumi va hududlar rivojining muhim manbaiga aylantiradi.

O‘zbekiston tog‘ tizmalari, cho‘llar, g‘orlar, daryo va suv omborlari tufayli aktiv turizm uchun xilma-xil resurslarga ega. Turizm qo‘mitasi 2025-yil sentabrda faol va sport turizmini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy loyiha yakunlanganini e’lon qildi. Biroq tabiiy resursning mavjudligi o‘z-o‘zidan

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

sotiladigan xizmatni anglatmaydi: resurs xavfsiz, tushunarli va narxlangan mahsulotga aylantirilishi, so‘ngra to‘g‘ri kanallar orqali bozorga chiqarilishi lozim[3; 4].

Tadqiqotning maqsadi – aktiv turizm xizmatlarini shakllantirish mexanizmini asoslash va O‘zbekiston sharoitida ularni tijoratlashtirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aktiv sport turizmi nazariyasining asoschilaridan biri amerikalik olim H.Gibson hisoblanadi. U sport turizmini aktiv sport turizmi, tadbirlar sport turizmi va nostalgik sport turizmiga ajratib, aktiv sport turistlarining ijtimoiy-demografik tavsifini aniqlagan. Gibson tadqiqoti aktiv turistlarning ko‘pchiligi o‘rta va yuqori daromadli, ma’lumotli shaxslar ekanini va ular sayohat davomida ham faol hayot tarzini davom ettirishga intilishini ko‘rsatgan [1].

J.Swarbrooke va hammualliflar sarguzasht va aktiv turizm mahsulotini tabiiy resurs, faoliyat, xizmat ko‘rsatuvchi va turist tajribasining uyg‘unligi sifatida talqin qilib, uning bozorini «qattiq» va «yumshoq» segmentlarga ajratadi. Mualliflar fikricha, tijoriy muvaffaqiyat «yumshoq» segment, ya’ni minimal tayyorgarlik talab qiladigan, xavfsiz va qulay mahsulotlarni yaratish bilan bog‘liq [2]. M.Weed va C.Bull (2004) esa sport turizmini sport, turist va joy o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rib chiqib, uni tashkil etishda davlat siyosati va xizmat ko‘rsatuvchilarning rolini ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlardan F.Ch.Boyko Yevropa, MDH va Osiyoda faol turizmni tashkil etish modellarini qiyosiy tahlil qilib, O‘zbekiston uchun sertifikatlash, raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklikni o‘z ichiga olgan institutsional saboqlarni ilgari surgan [3]. U.T.Mamadaliyev jahon va O‘zbekiston turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan [4]. Z.N.Turayev (2024, S.Z.Bekmuradov bilan hammualliflikda) turizmni tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini, B.A.Ro‘ziyev (2026) esa turizmni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini o‘rgangan.

Ushbu maqola muallifi D.F.Tilovmurodov tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari [5] hamda xorijiy turistlarning sarguzasht turizmida ishtirok etishiga ta’sir qiluvchi «push» va «pull» motivatsiyalari [6] tadqiq etilgan. Biroq mavjud ishlarda aktiv turizm xizmatini resursdan tijoriy mahsulotgacha olib chiqish jarayoni va tijoratlashtirish modellari yaxlit tizim sifatida yoritilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning axborot bazasini ATTA’ning 2025 va 2026-yillardagi tarmoq hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi va Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, milliy standartlar hamda aktiv turizm obyektlari operatorlarining ochiq ma’lumotlari tashkil etdi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mahsulot tuzilmasini dekompozitsiyalash, iqtisodiy tahlil (narx, bir kecha narxi va guruh to‘lishi

ko‘rsatkichlari), tipologiyalash va keys-tahlil usullaridan foydalanildi. Aktiv turizm xizmatining tarkibiy modeli Gibson va Swarbrooke yondashuvlari asosida ishlab chiqildi [1; 2]. Tijoratlashtirish modellari xorijiy tajriba va institutsional tahlil natijalari asosida tipologiyalandi [3]. Talab omillari xorijiy turistlar motivatsiyasiga oid empirik natijalar asosida baholandi [6]. Natijalar asosida xizmatni bozorga chiqarishning bosqichma-bosqich yo‘l xaritasi taklif etildi [4; 5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Aktiv turizm xizmatini shakllantirish uchun avvalo uning tarkibiy tuzilmasini aniqlash zarur. Tahlil natijasida aktiv turizm xizmatining to‘rt qatlamli modeli ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Aktiv turizm xizmatining to‘rt qatlamli modeli

Qatlam	Tarkibiy elementlar	Tijoriy ahamiyati
1. Resurs qatlami	Tog‘, cho‘l, g‘or, daryo, marshrut, tabiiy obyekt	Mahsulotning noyobligini belgilaydi, lekin o‘zi sotilmaydi
2. Asosiy faoliyat	Trekking, velotur, rafting, chang‘i, alpinizm, speleotur	Mahsulotning markaziy qiymati – turist pul to‘laydigan tajriba
3. Ta’minlovchi xizmatlar	Gid-instruktor, jihozlar ijarasi, transport, joylashtirish, ovqatlanish, sug‘urta	Daromadning asosiy qismi va xavfsizlik shu qatlamda shakllanadi
4. Tajriba va brend	Hikoya, madaniy elementlar, foto va video, sertifikat, hamjamiyat	Narx ustamasi va qayta xaridni ta’minlaydi

Manba: [1; 2] manbalar asosida muallif ishlanmasi.

Modeldan ko‘rinadiki, turist tabiiy resurs uchun emas, balki uning asosida yaratilgan xavfsiz va esda qolarli tajriba uchun pul to‘laydi. O‘zbekistonda ko‘plab hududlarda birinchi qatlam boy bo‘lsa-da, uchinchi va to‘rtinchi qatlamlar zaif rivojlangan. Shu sababli resurslar tijoriy mahsulotga aylanmay qolmoqda. H. Gibson ta’kidlaganidek, aktiv turistlar xizmat sifatiga talabchan va to‘lovga qobiliyatli segment bo‘lib, ular uchun xavfsizlik va professional hamrohlik hal qiluvchi omil hisoblanadi [1].

Tijoratlashtirish imkoniyatlarini baholash uchun jahon bozorining asosiy tijoriy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

Jahon aktiv va sarguzasht turizmi bozorining tijoriy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil
Eng ommabop marshrutning median narxi, AQSh dollari	3 000 (8 kecha)	2 250 (7 kecha)
Bir kecha narxi, AQSh dollari (hisob-kitob)	375	321
Sayohat xarajatining mahalliy iqtisodiyotda qoladigan ulushi	76 %	taxminan 75 %
Daromadi o‘sgan turoperatorlar ulushi	73 %	60 % ga yaqin
Keyingi yilda sof foyda o‘sishini kutayotgan turoperatorlar	66 %	61 %

Manba: ATTA Adventure Travel Trends & Insights (2025, 2026) hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

2-jadval ma’lumotlari bir nechta muhim tendensiyani ko‘rsatadi. Birinchidan, eng ommabop marshrutning bir kecha narxi 2024-yildan 2025-yilga 375 dollardan 321 dollarga, ya’ni 14,3 foizga pasaygan. ATTA buni guruhlarning kichrayishi, moslashtirilgan va diversifikatsiyalashgan mahsulotlarga o‘tish bilan izohlaydi. Ikkinchidan, daromadi o‘sgan operatorlar ulushi 73 foizdan 60 foiz atrofigacha qisqargan, ya’ni bozor jadal o‘sishdan barqaror, bosqichma-bosqich o‘sish bosqichiga o‘tgan. Uchinchidan, sayohat xarajatlarining qariyb to‘rtdan uch qismi mahalliy iqtisodiyotda qolmoqda, bu aktiv turizmni qishloq va tog‘li hududlar uchun ayniqsa foydali qiladi [2].



Manba: ATTA hisobotlari asosida muallif hisob-kitobi.

1-rasm. Eng ommabop aktiv turizm marshrutining median narxi va bir kecha narxi, AQSh dollari

ATTA’ning 2026-yilgi hisobotida bunday sharoitda turoperatorlar uchun talab o‘sishiga tayanish emas, balki daromadlarni boshqarish (yield management), farqlangan mahsulotlar va sotish kanallarini kuchaytirish orqali har bir guruh sayohatining samaradorligini oshirish muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, guruhlarning o‘rtacha to‘lish darajasi bir necha yildan beri 65 foiz atrofida saqlanib kelmoqda. Bu 12 o‘rinli guruhda o‘rtacha 7,8 nafar turist bo‘lishini anglatadi; demak, narxni belgilashda zararsizlik nuqtasi to‘liq guruhga emas, balki real to‘lish darajasiga asoslanishi lozim.

Aktiv turizm xizmatining narxini shakllantirishda xarajatlar tuzilmasi alohida e’tiborni talab qiladi. Xizmat narxi o‘zgaruvchan xarajatlar (ovqatlanish, transport, jihozlar amortizatsiyasi, sug‘urta), doimiy xarajatlar (gid-instruktor ish haqi, ruxsatnomalar, marketing) va tadbirkor foydasidan iborat bo‘ladi. Doimiy xarajatlar guruhdagi turistlar soniga bo‘linganligi sababli, guruhning real to‘lish darajasi narx va rentabellikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois aktiv turizmda narxni guruh hajmiga qarab tabaqalashtirish – kichik guruh yoki individual tur uchun ustama, erta bron qilish uchun chegirma – keng qo‘llaniladi. Bunday yondashuv narx orqali talabni boshqarish va turoperatorning daromadini barqarorlashtirish imkonini beradi [2].

Sotish kanallari ham tijoratlashtirishning muhim elementi hisoblanadi. Xorijiy aktiv turistlar odatda sayohatni oldindan, onlayn manbalar va ixtisoslashgan turoperatorlar orqali rejalashtiradi. Shu sababli mahalliy

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

provayderlar uchun xalqaro onlayn platformalarda ishtirok etish, ingliz tilida sifatli kontent va mijozlar sharhlarini shakllantirish bozorga chiqishning asosiy shartiga aylanadi. Tadqiqotlarimiz ham xorijiy turistlar qaror qabul qilishda xavfsizlik va xizmat sifati haqidagi ma'lumotlarga katta e'tibor qaratishini ko'rsatgan [6]. Ichki bozorda esa ijtimoiy tarmoqlar va qisqa videolar orqali marketing eng kam xarajatli va samarali kanal hisoblanadi.

O'zbekistonda taklif tomoni shakllanish bosqichida. Turoperatorlik faoliyatiga oid tadqiqotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 650 dan ortiq turoperator faoliyat yuritgan, biroq ularning aksariyati madaniy-tarixiy va ziyorat turizmiga ixtisoslashgan [4]. Aktiv turizm infratuzilmasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda: «Amirsoy» kurorti 30–40 mln yevrolik infratuzilma loyihalarini rejalashtirgan, Bo'stonliq tumanida esa fransiyaning MND kompaniyasi bilan hamkorlikda 1 278 gektar maydonda «Chimyon» xalqaro umummavsumiy kurorti barpo etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil sentabrdagi qarori bilan 10 ta g'or majmuasi speleoturizm uchun belgilandi va ularda xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Institutsional jihatdan ham muhim qadam qo'yilgan: «Turistik xizmatlar. Instruktor-gidlar xizmatlariga qo'yiladigan talablar» nomli O'zMSt 136:2024 milliy standarti qabul qilingan [3]. Bu aktiv turizm xizmatining uchinchi qatlami – xavfsiz va professional hamrohlik uchun huquqiy asos yaratadi. Biroq standart talablariga javob beradigan sertifikatlangan instruktor-gidlar soni hali talabdan ancha kam.

Aktiv turizm xizmatlarini bozorga chiqarishda bir nechta tijoratlashtirish modelidan foydalanish mumkin. Xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoiti asosida ularning tipologiyasi ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Aktiv turizm xizmatlarini tijoratlashtirish modellari

Model	Daromad manbai	Maqsadli segment	O'zbekistonda qo'llash imkoniyati
Paket tur	Yagona narxdagi to'liq dastur (marshrut, gid, joylashtirish)	Xorijiy guruhlar	Madaniy turga 1–3 kunlik aktiv modul qo'shish
Modulli (dinamik) paket	Turist o'zi tanlaydigan alohida xizmatlar	Mustaqil sayohatchilar	Onlayn platforma orqali
Abonement va mavsumiy pass	Oldindan to'lanadigan ko'p martalik foydalanish	Ichki turistlar	Tog'-chang'i kurortlari, velomarshrutlar
Tajriba marketpleysi	Komissiya (har bir sotuvdan foiz)	Barcha segmentlar	Mahalliy gid va kichik provayderlarni birlashtirish
Korporativ va team-building	Kompaniyalar bilan shartnoma	Biznes mijozlar	Toshkent yaqinidagi tog' hududlari
O'quv maktabi (akademiya)	Kurs va sertifikat to'lovlari	Boshlovchilar, bolalar, yoshlar	Chang'i, alpinizm, kayak maktablari

Manba: [2; 3; 4] manbalar asosida muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston uchun eng istiqbolli model – madaniy turlarga qisqa aktiv modullarni qo‘shishdir. Mamlakatga keluvchi xorijiy turistlarning asosiy qismi Samarqand, Buxoro va Xiva yo‘nalishlarida sayohat qiladi. Ularga Nurota tog‘larida trekking, Aydarko‘l atrofida tuya safari yoki Zomin tog‘larida velotur kabi 1–2 kunlik modullarni taklif etish yangi infratuzilma qurmasdan qo‘shimcha daromad olish imkonini beradi. Tadqiqotlarimiz natijalari xorijiy turistlarni aktiv faoliyatga undovchi asosiy «push» omillari yangi tajriba va o‘zini sinash istagi, «pull» omillari esa noyob tabiat va madaniy muhit ekanini ko‘rsatgan [6]. Shu bois madaniy va aktiv elementlarni birlashtirgan mahsulot ikkala motivatsiya guruhiga ham javob beradi.

Ichki bozor uchun esa abonement va o‘quv maktabi modellari samaraliroqdir, chunki ular mijozni bir martalik xaridan doimiy mijozga aylantiradi va mavsumiylikni yumshatadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan aktiv dasturlar – adaptiv chang‘i, moslashtirilgan velosipedlar, qulay marshrutlar – hozircha deyarli bo‘sh bo‘lgan yangi bozor segmentini ochadi [5].

Aktiv turizm xizmatini g‘oyadan bozorgacha olib chiqish uchun to‘rt bosqichli yo‘l xaritasi taklif etiladi (4-jadval).

4-jadval

Aktiv turizm xizmatini shakllantirish va tijoratlashtirishning yo‘l xaritasi

Bosqich	Asosiy harakatlar	Natija ko‘rsatkichi
1. Shakllantirish	Resurs auditi, marshrutni loyihalash, xavfsizlik rejasi, O‘zMSt 136:2024 talablari bo‘yicha gidlarni tayyorlash	Sertifikatlangan mahsulot pasporti
2. Sinov	Pilot guruhlar, narx sinovi, mijozlar fikrini yig‘ish	Qoniqish darajasi, zararsizlik nuqtasi
3. Bozorga chiqarish	Onlayn sayohat agentliklari, xorijiy turoperatorlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuv, ijtimoiy tarmoqlar	Guruh to‘lishi, sotuv kanallari ulushi
4. Masshtablash	Yangi hududlarga ko‘chirish, franchayzing, abonement va korporativ dasturlar	Takroriy mijozlar ulushi, mavsumdan tashqari sotuv

Manba: muallif ishlanmasi.

Yo‘l xaritasining asosiy afzalligi shundaki, u tadbirkorga katta investitsiya qilishdan oldin mahsulotni kichik hajmda sinab ko‘rish imkonini beradi. Davlat esa birinchi bosqichda – gidlarni tayyorlash, marshrutlarni markirovka qilish va xavfsizlik infratuzilmasini yaratishda davlat-xususiy sheriklik asosida qo‘llab-quvvatlashi maqsadga muvofiq [3]. Bunda xususiy sektor tijoriy xatarni o‘z zimmasiga oladi, davlat esa barcha ishtirokchilar foydalanadigan umumiy infratuzilmani ta’minlaydi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, aktiv turizm xizmati resurs, asosiy faoliyat, ta’minlovchi xizmatlar va tajriba-brend qatlamlaridan iborat bo‘lib, uning tijoriy qiymati asosan uchinchi va to‘rtinchi

qatlamlarda shakllanadi [1; 2]. Ikkinchidan, jahon bozori jadal o‘sishdan barqaror o‘sishga o‘tmoqda, bir kecha narxi pasaymoqda, raqobat esa farqlangan mahsulot va samarali sotish kanallari orqali olib borilmoqda. Uchinchidan, O‘zbekistonda tabiiy resurslar va yirik infratuzilma loyihalari mavjud bo‘lsa-da, aktiv turizm xizmatlarining katta qismi hali tijoriy mahsulot darajasiga yetmagan [3; 4].

Aktiv turizm xizmatlarini shakllantirish va tijoratlashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) har bir istiqbolli hudud uchun aktiv turizm resurslari auditini o‘tkazish va to‘rt qatlamli model asosida «mahsulot pasporti»ni ishlab chiqish;

2) O‘zMSt 136:2024 standarti bo‘yicha 411nstructor-gidlarni tayyorlash va sertifikatlash dasturini oliy ta’lim muassasalari va kasb-hunar markazlari bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yish [3];

3) madaniy turlarga qo‘shiladigan 1–2 kunlik aktiv modullarni ishlab chiqib, xorijiy turoperatorlar va onlayn platformalar orqali sotish [6];

4) ichki bozor uchun mavsumiy abonementlar, korporativ dasturlar va bolalar hamda yoshlar uchun o‘quv maktablarini rivojlantirish;

5) mahalliy gid va kichik provayderlarni birlashtiruvchi milliy aktiv turizm tajribalari marketpleysini yaratish [4];

6) imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan aktiv turizm mahsulotlarini yaratishni rag‘batlantirish [5];

7) narxni belgilashda guruhning real to‘lish darajasini hisobga oladigan zararsizlik tahlilini va daromadlarni boshqarish usullarini joriy etish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi aktiv turizmni O‘zbekiston turizm eksportining yuqori qo‘shilgan qiymatli yo‘nalishiga aylantirish, tog‘li va qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratish hamda turizmning mavsumiyligini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gibson, H.J. (1998). Active sport tourism: Who participates? Leisure Studies, 17(2), 155–170.

2. Swarbrooke, J., Beard, C., Leckie, S., & Pomfret, G. (2003). Adventure Tourism: The New Frontier. Oxford: Butterworth-Heinemann.

3. Boyko, F.Ch. (2025). Yevropa, MDH va Osiyoda faol turizmni tashkil etish modellari bo‘yicha qiyosiy tahlil: O‘zbekiston uchun institutsional saboqlar. FarDU ilmiy xabarlari, 31(5).

4. Mamadaliyev, U.T. (2025). Jahon va O‘zbekiston turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, (15). https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1188

5. Tilovmurodov, D.F. (2024). Imkoniyati cheklanganlarga to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari. Green Economy and Development, 2(1). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a823

6. Tilovmurodov, D.F. (2026). Push and pull motivations for participation in adventure tourism: Foreign tourist perspectives. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 7(1), 436–445.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy